



Received: January 23, 2022
Accepted: March 19, 2022
Available online: March 25, 2022

Bahor To‘rayeva

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O‘zbekiston

BADIIY ZAMON TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada badiiy zamonning adabiy-estetik kategoriya sifatidagi nazariy-konseptual maqomi, uning klassik shakllari, kategoriyalari, turlari va usullaridan iborat yaxlit tizim ekanligi tahlil etilgan. Jahon adabiyotshunosligida badiiy zamon asar voqea-hodisalarining ketma-ketligi va jadalligini ifodalovchi kompozitsiya unsuri, obrazlarni tavsiflovchi hamda muallifning dunyo tuzilishi haqidagi tasavvuri, dunyoqarashi, olamni qay darajada idrok qilishini aks ettiruvchi adabiy-estetik kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. Darhaqiqat, asar strukturasi, syujet va kompozitsiyasini uyushtiruvchi, epik matn maydonini shakllantiruvchi, badiiy voqelikning tugal yaxlitlikda qabul qilinishini ta‘minlovchi badiiy zamonning ijodiy teran o‘zlashtirilishi asarning estetik tabiatini tushinishda o‘ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Zero, badiiy zamon asarning barcha unsurlarini qamrab olar ekan, voqealar silsilasi, qahramonlarning kayfiyat-kechinmalarini badiiy zamon tasvirisiz ko‘rsatib bo‘lmaydi. Jahon ilmiy-nazariy tafakkurining keyingi yuz yillik taraqqiyotida badiiy zamon borliqni aks ettirishning poetik vositalaridan biri hamda yozuvchining ijodiy niyati va asarning g‘oyaviy konsepsiyasidan kelib chiqib, syujetni yuzaga chiqarishda, kompozitsion qurilishida, real hayotiy voqelik manzarasini in‘ikos ettirishda asos bo‘lgan adabiy hodisa sifatida baholangan. Badiiy zamon asarning tasvir ob‘yekti va sub‘yekti sifatida muallif yaratgan adabiy olam manzarasini yaxlit idrok qilish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Kalit so‘zlar: badiiy zamon, badiiy zamon kategoriyalari, badiiy zamon shakllari, badiiy zamon turlari, badiiy zamon usullari, retrospeksiya, prospeksiya, retrospeksiya, badiiy

Bahor Turaeva

Associate Professor, Uzbekistan State World
Languages University
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: bahorturaeva@gmail.com

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE CONCEPT “TIME” IN FICTION

ANNOTATION

The article deals with the theoretical and conceptual status of “time” in literature as a literary-aesthetic category, its holistic system of creative classical forms, categories, types and methods. Literary time is being concerned as the literary-aesthetic category in the world literature critical studies, expressing the scope of the universe interpretation, the author’s outlook and imagination regarding the world foundation, defining personages, the composition means of expressing the sequence and duration of the events. A creative comprehension of “time” in fiction as a means arranging the work composition, structure, and constructing an epic field of the text demands a special approach to understanding the aesthetic character of the work. Since “time” in literature includes all the elements of a fictional work, it is impossible to present the plot, composition, conflict, system of characters, feelings and the mood of the characters without the description of the fictional time. In the following development of the scientific-theoretical thought in the world, time in literature is accepted to be one of the poetic means to demonstrate the reality as well as a literary process that is basic for the expression of the reality in the compositional construction and illustration of the plot relying on the writer’s intention and the ideological conception of the literary work. The “fiction time” enables to cognate the literary world picture created by the author in terms of the descriptive subject and object of the work.

Key words: category of time in literature, forms of conventional time, types of time in fiction, methods of presenting time in literature,

makon, xronotop, xronos, syujet zamoni, badiiy obraz.

retrospection, prospection, literary space, xronotop, xronos, subject time, literary image.

KIRISH

Ob'yektiv real vaqtning aks ettiruvchi zamon tushunchasi konseptual yaxlit tizim sifatida o'rganishni hoyatda murakkab. Falsafa, fizika, teologiya va adabiyotshunoslikda zamon fenomeni to'g'risida turli nazariy-konseptual qarashlar, yondashuv va talqinlar mavjud. Nisbiylik nazariyasiga ko'ra, zamon o'z-o'zicha materiyadan ajralgan holda mavjud bo'lmasdan, balki u bilan universal aloqada bo'lib, makonning nisbiy jihatlarini sifatida ro'y berishi mumkin. Zamon-makon chambarchasligi *birinchidan*, ularning har qanday mavjudlikning asosiy shakllaridan ekanligida, zamon o'z-o'zicha moddiy o'zgarishlardan ayri holda mavjud bo'lmashligida, *ikkinchidan*, uzluksizlik kasb etmaydigan, o'tmishdan kelajakka o'zgarmaydigan moddiy tizim va jarayonlar bo'lmashligidir. Zamon-makon dialektikasining bunday konseptualligi badiiy zamon va badiiy makonni ijodkor tasvirlayotgan olamning ajralmas uzviy tarkibi, deb qarashga o'rgatadi. Adabiyotda ajralmas bu tarkib xronotop, ya'ni zamon va makonni badiiy o'zlashtirish usuli, deb ataladi.

ASOSIY QISM

Materiya hamisha harakatda mavjud. Harakat esa uzluksiz davomiylikdir (zamonning uzluksizligi nisbiy, uzluksizligi esa mutlaqdir) va u zamonning fizik mohiyatini belgilaydi. Materiyaning yashash shakli maqomida barcha ob'yektlar mavjudligining davomiylikni, moddiy dunyodagi jarayonlarning uzluksizligini, holatlar almashinuvining izchilligini xarakterlagan holda, zamon voqealarning o'zaro uzluksiz bog'langanligini, o'lchamliligi hamda tartiblanganligini, voqealar ketma-ketligini ifodalaydi [Abdullayeva M., 2004; 61].

Shunga ko'ra, insoniyat madaniy ongida zamon to'g'risida uch xil tasavvur shakllangan: **turkumli (siklli)**, **to'g'ri chiziqli** (*zamonning klassik tiplari*) va **halqali**.

Tugallanganlik, voqealarning takrorlanishi, ortga qaytish g'oyasi, ibtido bilan intihoni farqlamaslik xarakterli belgilari hisoblangan hodisalar manbai mavsumiy davrlar – turkum lardan (sikllardan) iborat bir xildagi voqea-hodisalarning ketma-ket kelishi (har qanday o'zgarish zamonning kelgusi lahzalari ketma-ket kelishi bilan sodir bo'ladi) sifatida idrok qilingan turkumli (siklli) zamon antik davrlar tushunchasi hisoblanadi. Bashariy kamolotning yangi bosqichlarida zamon ongda harakat yo'nalishi o'tmishdan hozir (bugun) orqali kelajakka intilgan **to'g'ri chiziqli** holatida tasavvur qilina boshlandi. **Zamonning to'g'ri chiziqli tipi** izchilligi, uzluksizligi, qaytarilmasligi (abadiyligi), tartibliligi, o'lchamliligi bilan xarakterlanadi. Uning harakati jarayonlarning davomiylikni, uzluksizlikni shaklida idrok qilinadi.

Zamon nazariyasida uni *obyektiv idrok qilish* qatori, odatda, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning bir maromdaligiga va hayajonli holatning o'ziga xosligiga bog'liq *subyektiv idrok qilish* ham mavjud bo'lib, tashqi olam – materiyaning obyektiv mavjudligiga daxldor **obyektiv zamon** hamda insonning real voqelikni idrok etish sohasiga taalluqli **perseptual zamon** [perseptual zamonda mavjud real obyektlar bo'lakcha munosabatlar tizimiga qo'yiladi, unsurlar alohidalik kasb etadi. Jumladan,

peyzaj qahramonlar kayfiyati tovlanishlarini ifodalaydi (psixologik parallelizm yoki psixologik kontrast), hayvonlar – “aqlashtiriladi”, insoniy xarakter xususiyatlarini kasb etadi] ajratib ko‘rsatiladi. “Badiiy zamonning shiddati unda sodir bo‘layotgan hodisalarning tig‘izligida namoyon bo‘ladi” [Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M., 2016; 207]. Ana shu tariqa zamon inson ruhiyatiga ta’sir qilganicha, uning hayotiy maromini belgilaydi.

Halqali zamon yaxlitligi, uzluksizligi, bog‘langanligi, o‘lchamli tartiblanganligi va eng muhimi, abadiyligi bilan muayyan mundarija va mohiyatda oldingi ikki tipning o‘ziga xos “qorishmasi”dir. Mohiyat shundaki, zamon kechadan bugun orqali ertaga qarab “bo‘yi”ga yoki “eni”ga “oqmaydi”. Garchi zamon koordinatasida *o‘tgan, hozirgi* va *kelasi zamonlar* real mavjud bo‘lsa-da, garchi ular bir-birini o‘zaro sabab-oqibat tarzida taqozo qilib, botinan uzviy yaxlitlikni, mushtarak zanjirni, ya’ni zamonning tugal tizimini tashkil etsa-da, zamon o‘z tabiiy qonuniyatiga ko‘ra, *ibtidoy-u intiho nuqtalarining tutash halqasidan* iborat. Ibtidodan boshlangan harakat intihoda yakun topmaydi, aksincha, ibtidodan yangicha quvvat olib, faoliyatda uzluksiz davom etadi. Bu davomiylilik cheksiz va abadiy, hatto, bir qarashda, zamondan tashqari hodisadek, aslida esa, zamon turkumlilik, sikllilik qonunining mangu silsilasidan iborat **abadiyatdir**.

Zamon nazariyasining konseptual muxtasar qaydi **xulosasi** shundan iborat: falsafaning har qanday kategoriyasi, qonuniyatlar dialektikasi ilmning barcha tizim va turlari uchun hamisha nazariy-metodologik asos-manba bo‘lgani uchun zamon–makon universal kategoriyalari adabiy-estetik kategoriyalar ham hisoblanadi. Zero, aynan zamon makon kabi san’atning turlarga bo‘linishida asos qilib olindi. Mazkur falsafiy-estetik hodisani ilk bor G.E. Lessing “Laokoon yoxud rassomchilik bilan poeziyaning chegaralari haqida” asarida ta’kidlaydi [Lessing G.E., 1933; 18-19]. Aynan shu hodisadan kelib chiqqan holda, M.M. Baxtin “*bu dunyoda hamma narsa – zamon, makon haqiqiy xronotopdir*” [Baxtin M.M., 1975; 234], degan ilmiy aksiomani kashf etdi.

So‘z san’ati uchun zamonning adabiy-estetik jihatdan qanchalik muhim hamda ahamiyatli ekanligi bilan bog‘liq Lessing ta’limotini Hegel estetika bo‘yicha mashhur ma’ruzalarida sobitlik bilan davom ettirdi: “Voqealarni bir butun yaxlit harakat sifatida tasvirlash, – deya ta’kidlaydi mutafakkir, – ularning bir-biri bilan kurashlari, yechimlari ko‘proq poeziyaga daxldor, qolgan barcha san’atkorlar uchun esa harakatlar rivojida va voqealar zanjirida atigi bir lahzanigina qayd etish xos, xolos” [Hegel G.V., 1938; 221].

Badiiy zamon nazariyasi metodologik asos-manbalarining shakllanishi va rivoji K. Levi-Stross (mifologik zamon mohiyati), R.Bart, M.Xaydegger, M.Baxtin, D.Lixachev, N.K. Gey, Yu. Lotman singari xorijiy olimlar ilmiy merosi bilan bevosita bog‘liq [Abutaliev E.I., 1993; 6-7]. Ular badiiy zamonni alohida ilmiy-estetik muammo sifatida o‘rganish barobarida asosiy e’tiborni ko‘proq badiiy zamonning badiiy makon uzviyligi dialektikasiga qaratadilar. Xronotop tizimida zamon ustuvor hisoblanishini ta’kidlagan ushbu mutaxassislar makonning zamon orqali anglanishini va u bilan bevosita bog‘liqligini e’tirof etadilar. “Adabiyotda badiiy o‘zlashtirilgan

zamon va makon munosabatlarining o‘zaro muhim aloqasini **xronotop (zamonmakon)** deymiz. Xronotopni adabiyotning shakl-mazmun kategoriyasi, deb tushunamiz. Adabiy-badiiy xronotopda zamon va makon belgilari anglangan va aniq yaxlitlikda uyg‘unlashgan holda ko‘zga tashlanadi. Bunda zamon tig‘izlashadi, zichlashadi, badiiy jihatdan sezilarli bo‘ladi, makon esa zamon, syujet, tarix harakatlarida intensivlashadi, tortiladi. Zamonning ko‘rinish belgi-alomatlari makonda namoyon bo‘ladi, makon esa zamon orqali anglangan va o‘lchanadi”, – deb yozadi M.Baxtin [Baxtin M.M., 1975; 234-235].

Aynan shu sababdan ham badiiy asarda zamonni makondan yoki aksincha, makonni zamondan, garchi ular alohida-alohida mustaqil adabiy-estetik kategoriyalar hisoblansa-da, ustun ko‘rish mumkin emas. Chunki badiiy asarda zamon va makonning ham shakl, ham mazmun jihatidan ahamiyati bir xil. Yaxlit makon olamida zamonni ko‘rish qobiliyatini M. Baxtin haqiqiy so‘z san’atkorining eng qimmatli fazilatlaridan biri, deb hisoblaydi [Baxtin M.M., 1986; 216]. Badiiy asar zamonining o‘ziga xosligi – unga voqealardagi o‘zgarishlarni, shakllanish, rivojlanish jarayonlarini berish imkonini tug‘diradi.

M.Baxtin, D.Lixachyov, Yu.Lotman, A.Gurevich, A.Yesin, V.Xalizev, N.Tamarchenko, V.Tyupa, S.Broytman, N.Shutaya, A.Paveleva [Baxtin M.M., 2007; 360] tomonidan yaratilgan badiiy zamonning mavjud ta’riflari va konsepsiyalariga tayangan holda badiiy zamonning quyidagi shakllari tasniflandi.

1-jadval.

Badiiy zamon shakllari		
1	<i>Tarixiy zamon</i>	Tarixiy zamon bevosita yoki bilvosita ko‘rsatilgan ma’lum bir tarixiy davrda muayyan jamiyatda yuz beruvchi jarayonlarni, davrlar va avlodlar almashinuvi va jamiyat hayotidagi yirik voqealarni ifodalaydi.
2	<i>Xronikaviy–maishiy zamon</i>	Bunday zamonning dinamikasi o‘ta shartli, uning vazifasi esa barqaror turmush tarzini ifoda etadi.
3	<i>Avantyr yoki sarguzasht zamoni</i>	Badiiy zamonning bu ko‘rinishi hamisha boshlanish va yakunga ega, tugallanganligi bilan ajralib turadi, shuningdek, sinov vaziyatlari (vaqti) bilan uzviy bog‘langan.
4	<i>Mistik zamon</i>	Quyosh botishidan to xo‘roz qichqirgungacha bo‘lgan g‘ayritabiiy, tushuntirib bo‘lmaydigan, sirli va odamlar dunyosiga taalluqli bo‘lmagan personajlar (alvastilar, jodugarlar, arvohlar, qo‘rqinchli jonotlar, xudolar, afsonaviy maxluqlar va h.) bilan to‘la zamon.
5	<i>Fantastik zamon</i>	Fantastik zamon fantastik makon bilan chambarchas bog‘liq va asar matnida fantastik xronotop (makon va zamon uzviyligi) sifatida keladi. Fantastik zamonning yuzaga chiqish shakllari xilma-xil: zamonning keskin o‘zgarishi, o‘tgan zamonga, kelajakka, parallel vaqt oqimlariga o‘tib qolishlar, vaqtning kechishi tezlashadigan yoki aksincha, sekinlashadigan va hatto, to‘xtab qoladigan vaqt.

6	<i>Idilliya zamon</i>	Bu o‘zaro abadiy muhabbat, mustahkam sadoqatli do‘stlikning “ol-tin davri”, baxtli hayot zamonidir. Ammo salbiy hodisalar, sinov-larga to‘la zamonni ham, agar bu davrda qahramon o‘zini baxtli va har jihatdan qulay his qilsa, idilliya zamon deb hisoblash mumkin. Qahramon o‘zgarishi, qarishi, kuchsizlanishi, uning hayoti sargu-zashtlar, voqealarning kutilmagan va oldindan aytib bo‘lmaydigan o‘zgarishlariga to‘la bo‘lishi mumkin, shunday bo‘lsa-da, u yuzaga kelgan holatlardan mamnun bo‘ladi.
7	<i>Mifologik zamon</i>	Mifologik zamon olamning qadimgi modellarida vujudga kel-gan bo‘lib, teskari tomonga: hozirgi zamondan o‘tgan zamonga yo‘naltirilgan. Mifologik zamon ortga qaytadigan, chiziqli emas, bunda zamon ortga qaytishi va hikoyachiga ma‘lum kelajakka o‘tishi mumkin. Mifologik zamon uchun har xillik, shartlilik, nisbiylik, ka-lendar va sutkaviy zamonning ramziy ahamiyati, jonlantirish, shu-ningdek, jinlar, diniy rivoyat va afsonalarda keltirilgan obrazlar ham-da mavzulardan foydalanish xosdir.
8	<i>Biografik zamon</i>	Badiiy asarda biografik zamon yosh bosqichlaridan tashqari qahra-mon hayotidagi muayyan ahamiyatga ega davrlar bilan ham bog‘liq. Badiiy zamonning bu ko‘rinishi deyarli barcha asarlarda mavjud va insonning xarakteri, ulg‘ayishi va shakllanishini ochib beruvchi zamon sifatida ifodalanadi. Ammo biografik zamon hamisha ham kompozitsiyaning muhim unsuri bo‘lavermaydi. Bunday zamon qat-lamlari muallif tomonidan badiiy asarning zamon tuzilmasini ikkinchi darajali tarkibiy qismlari sifatida qo‘llanadi.
9	<i>Abadiyat (esxatologik) zamon</i>	Abadiylik va butun dunyo tarixi haqidagi tasavvur bilan bog‘liq zamon. Abadiyat zamon koinot va xudo haqidagi tasavvurlar bilan ham bog‘liq. Zamonning bu ko‘rinishi falsafiy, diniy yoki mifologik mavzularga to‘la badiiy matnlarda ko‘proq uchraydi. Ko‘pchilik ho-latlar mualliflar abadiyat zamonidan mifologik zamonning boyitil-gan ramziy tarkibiy qismi sifatida foydalanadilar.
10	<i>Taqvim zamon</i>	Yil fasllari, oddiy va bayram kunlarining almashinuvi bilan aks et-tiriladi. Taqvim zamon epik asarlar kompozitsiyalarining muhim tarkibiy qismi sanaladi, shu bilan birga, syujet yaratish vazifasini kamdan-kam bajaradi.
11	<i>Sutkaviy zamon</i>	Kun va tun, ertalab va kechqurun, tong otishi va kun botishi, kun-ning yarmi va yarim tun va hokazolar. Zamonning bu ko‘rinishi ham an‘anaviy, ham ramziy ahamiyat kasb etadi. Sutkaning yorug‘ payti inson uchun ijobiy sanaladi, tunda esa qora, yovuz kuchlar hukmron-lik qiladi, qahramonlarni xavf-xatarlar va sarguzashtlar kutib turadi.
12	<i>Epik zamon</i>	Mutlaq o‘tmish, hozirgi kundagi real zamondan o‘tib bo‘lmas chegara bilan ajratilgan ajdodlar va qahramonlar zamon. Eposdagi qahramon-ning hayoti va qahramonliklari o‘tmishdan olingan bo‘lsa-da, doimo davom etuvchi hozirgi kundir, ya‘ni eposda voqealar kechadigan shartli zamonli shartli olam mavjud.

Adabiyot san‘at namunasi maqomida shakllangan davrlardan buyon qaysi adabiy tur, janrga taalluqliligidan qat‘iy nazar, zamon va makonni badiiy voqelikning mustaqil jabhasi [Gurevich A., 1972; 5-138], asar badiiy to‘qimasining o‘ziga xos hodisasi [Lixachev D., 1987; 211], asar mazmunini tashkil etishning faol vositalaridan biri [Gey N., 1974; 228] sifatida ijodiy-estetik o‘zlashtirish bilan badiiy takomillashib

kelmoqda. Badiiy soʻz ustasi ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda, zamon va makonni adabiy yangicha kashf qilish, ularni istagancha erkin tanlash, bir kunga asrlarni, asrga esa bir kunni sigʻdirishdek badiiy zamon hamda badiiy makondan ijodiy erkin foydalanish mahoratini namoyon qiladi. Badiiy olam uning oʻzida tasvirini topgan real voqelik kabi zamon va makonda mavjud boʻladi. Badiiy zamon obrazning eng muhim xususiyatiga aylanib, asarda muallif yaratadigan adabiy-poetik reallikni yaxlit idrok qilish – ijodiy-estetik oʻzlashtirish, yaʼni badiiy voqelikni tugal yaxlitlikda qabul qilinishini taʼminlaydi, asar kompozitsiyasini tashkil etadi [Fyodorov V.V., 1984; 81].

Badiiy adabiyot dinamik sanʼat guruhiga mansub. Shunga qaramay, adabiy-poetik obraz asar matni izchilligi oʻlaroq, zamon-makonda namoyon boʻladi va, oʻz mazmuni bilan dunyoning zamon-makon “modeli”ni ramziy – yaxlit aks ettiradi. Badiiy asarni obrazlar ritmining zamon-makonda amalga oshiradigan qaydi deyilishi sababi ana shunda. “Obraz, albatta, shunday maʼnoda berilganki, – deb taʼkidlaydi N.Gey, – uning istalgan har qanday mazmuni kim bilandir bogʻlangan, qaerdadir va qachonlardir sodir boʻlganligi chamalanadi. Bu yozuvchi uchun zarur boʻlgan uch boshlangʻich miqdor – badiiy olamning uch oʻlchovidir... Mazkur oʻzgarmas son-miqdorsiz obraz oʻzini namoyon qila olmaydi” [Gey N.K., 1967; 239].

Cheksiz bu olamning yaxlit makonida (bu qotib qolgan va tugallangan fon emas, balki unda roʻy berayotgan voqealarga binoan shakllanadigan jarayondir) “hamma narsada, tabiatdan tortib, insoniy axloq va gʻoyalargacha (hatto, mavhumiy tushunchalargacha) zamonni koʻrish, zamonni oʻqish qobiliyati,... zamon oqimi alomatlarini oʻqish qobiliyati” [Baxtin M.M., 1967; 204-205] har qanday yirik soʻz sanʼatkori poetikasining teran xususiyatlari hisoblanadi. Akademik D.Lixachev taʼrificha, badiiy zamon “bu zamon muammosiga nazar emas, balki zamonning oʻzi, badiiy asarda u qanday namoyon boʻlishi va tasvirlanishidir. U yoxud bu mualliflar tomonidan aytiladigan zamon konsepsiyasining tadqiqi emas, balki aynan shu badiiy zamonning tadqiqi soʻz sanʼatining estetik tabiatini tushunish uchun koʻproq ahamiyat kasb etadi [Lixachyov D.S., 1987; 210]. U “*adabiy asar badiiy toʻqimasi hodisasi*” [Lixachyov D.S., 1987; 200] sifatida adabiyotning oʻziga xos xususiyatlari, uning obrazlar tizimi, butun poetik tarkibi bilan bevosita bogʻliq. “Zotan, butun adabiyot badiiy toʻqimalardan iborat, chunki turmush hodisalari zamon va makon ichida sochilib yotadi” [Umurov H., 2004; 36]. “Taʼkidlash joizki, zamon va makon badiiy syujetning tarkibiy qismi yoki unsurlaridan biri emas, balki uning omili, hayotiyli va haqqoniyli manbaidir. Makon va zamon syujetga oʻz muhrini bosadi, uni jonlantiradi, taʼsirchanligini oshiradi, sermazmun qiladi” [Boboyev T., 2001; 135]. Adabiy tur va janrlarda turlicha boʻlgan badiiy zamon dunyoning zamon “modeli”ni shartli-ramziy yaxlitlikda poetik zamon “modeli”ga aylantiruvchi badiiy modellash tirish vositasi, badiiy voqelikning ijodiy kashf qilingan shakli, uning amaldagi mavjudlik shakli, asar kompozitsiyasini tashkil etuvchi yaxlit adabiy-estetik kategoriya sifatida talqin qilinmoqda.

Badiiy zamon, tor maʼnoda, voqea va hodisalarning zamon bilan bogʻliq ketma-ketligi, toʻplami va jadalligini ifodalovchi kompozitsiya unsurlaridan biri, shuningdek, asardagi badiiy obrazlarni tavsiflovchi va muallifning dunyo tuzilishi

haqidagi tasavvuri, dunyoqarashi, olamni qay darajada idrok qilishini aks ettiruvchi badiiy asardagi hikoya qilish sur'atidir. Keng ma'noda badiiy zamon, birinchidan, badiiy asardagi voqelikning davomiyligidir. Bu zamon oralig'i "u yoki bu davrda istalgan doiradagi insonlar hayot tarzini ifodalab beruvchi" aniq bir ijtimoiy-tarixiy hodisalarning yuz berish zamonidir [Esalnek A.Ya., 2003; 110-119]. Ikkinchidan, badiiy zamon – qahramonlar hayotining real, maishiy, biografik zamon, uning davomiyligi va ko'lam. Uchinchidan, hikoya qilish, ya'ni yuz berayotgan voqealar haqida so'zlab berish zamonidir [Paveleva A.K., 133-148]. Badiiy zamonning dastlabki ikki unsuri syujet zamon, uchinchisi esa hikoya qilish apparati bilan bog'liq zamon. Boshqacha aytganda, adabiy asarda badiiy zamon, bu – tasvirlangan / hikoya qilingan zamon ("Erzählte Zeit") va tasvirlash / hikoya qilish zamonidir ("Zeit des Erzählens") [Tamarchenko N.D., 1999; 286]. A.Potebnya [Ozernaya M., 2017] va A.Yesin [Yesin A.B., 2003; 97-105] bu ko'rinishlarni "real (syujet)" va "badiiy zamon" sifatida tavsiflaydi.

Adabiyotda zamon – so'z san'atida turli xilda namoyon bo'lgan, ijodiy–estetik o'zlashtirilgan zamon tizimidir. Boshqacha aytganda, **badiiy zamon** badiiy modellashtirish vositasi sifatida bevosita badiiy olamning "to'rtlamchi koordinati" zamon bo'lib, u adabiy qahramonning va tasvir subyektlarining borlig'i hisoblanadi.

Adabiyotda badiiy zamon badiiy matnning turi va janri, muallif dunyoqarashi, muallif uslubi hamda asarda tasvirlangan zamonning kitobxon tomonidan obrazli tahlili (interpretatsiyasi) kabi aspektlar asosida ifodalanadi [Panasenka N., 2009]. Hayotni uzoq muddat yoxud tinimsiz tasvirlashning mutlaqo imkoni yo'q. Shu sabab zamonni badiiy siqish zarur. Zamon oqimi muallif tomonidan atay sekinlashtirilishi (*retardatsiya usuli*), siqilashtirilishi, ixchamlashtirilishi yoki, umuman, to'xtashi (portret, peyzaj tasvirlarida, muallifning falsafiy mushohadalarida) mumkin. Zero, zamonning tashkil etilishiga hamisha uning bo'linishi, ya'ni uzluksizligi orqali erishiladi. Demak, badiiy zamon hamisha real zamonning o'zgartirilganidir. Bu bir tekis, bir maromdagi o'zgarish bo'lmay, u badiiy obraz va subyektiv hamda obyektiv asoslarni ijodiy sintezlashtiruvchi, asarning predmet qatlamini, nutq va kompozitsiyasini yaxlitlikda tashkil etuvchi muallif g'oyaviy–estetik konsepsiyasining o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Badiiy zamon, uni ijodiy modellashtirish asarning janriy xususiyatiga, adabiy usuliga, muallif tasavvur–tushunchalariga, shuningdek, mazkur asar qaysi adabiy oqim va yo'nalishlar silsilasida yaratilganiga ham bog'liq. Shu bois **badiiy zamon tizimi – shakllari, tiplari, kategoriyalari va usullari** ham muallifning ijodiy–g'oyaviy niyatidan kelib chiqqan holda, o'zgaruvchanligi hamda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Chunki badiiy asarda zamon oqimi "modeli" adabiy matnda zamon munosabatlarining kompozitsion asosiy uyushtiruvchi kuchi bo'lmish muallifning **nuqtai nazariga** asoslanadi [Lotman Yu.M., 1970; 69] (aynan shu sabab badiiy zamon muallif badiiy olamining "modeli" ifodasi, deb qaraladi). Shuningdek, "badiiy zamondagi barcha o'zgarishlar uning so'z san'ati rivojining umumiy yo'nalishi bilan bog'liq takomilining umumiyaxlit chizig'ida jamlanadi" [Lixachyov D.S., 1994; 127].

Badiiy asarning to'rtinchi o'lchov maqomi zamon–makon dialektikasidan kelib

chiqadi. Eynshteynning nisbiylik nazariyasida makon va zamonning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda mavjudligi asoslab berilgan. Unga ko'ra, "makon zamonning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, zamon makonning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi" [Tulenov J., G'ofurov Z., 1997; 384]. Darhaqiqat, har qanday mavjudlikning asosiy shakllari bo'lmish makon va zamon chambarchasligida zamon, *birinchidan*, o'z-o'zicha moddiy o'zgarishlardan ayri holda mavjud bo'lmaydi. *Ikkinchidan*, davomiylik kasb etmaydigan, o'tmishdan kelajakka o'zgarmaydigan moddiy tizim va jarayonlar bo'lmaydi. *Uchinchidan*, zamon bilan makon birligi harakatda yuzaga chiqadi. *To'rtinchidan*, zamonning yalpi umumiy xossalarida uning materiya makoni va harakati bilan aloqasi, moddiy tizimlardagi uzunlik, assimetriya, qaytarilmaslik, nosikllilik, uzluklilik bilan uzluksizlikning birligi, bog'langanlik, struktura munosabatlariga qaramlik mavjud. Shu sabab ham nisbiylik nazariyasida mavjud **to'rt o'lchovli geometriyada uch o'lchovli makon** fizik hodisalarni tekshirishning asosini tashkil etib, *to'rtinchi o'lchov sifatida zamon olingan*. Falsafada bu **to'rt o'lchovli kontinuum**, deb atalib, *badiiyat olamiga ham bevosita daxldor*, ya'ni **badiiy zamon – badiiy olamning "to'rtlamchi koordinati" zamon**i, deganidir.

Badiiy zamon – badiiy makon kabi san'atkor asarda tasvirlayotgan adabiy olamning ajralmas uzviy tarkibi. Badiiy makon dinamik jo'shqin, chunki harakat uchun muhit yaratadi, badiiy zamon esa makonni ortidan ergashtiradi (*Harakatda zamon va makon ana shu tariqa birlashadi, qahramonlarning alohida zamon–makon kontinuumi shakllanadi*). Dinamikani makon va zamonning yashash sharti, deb atalishi sababi ana shunda. Barcha statik makonlar tasvirlanayotgan voqealarning zamon tizimiga jalb qilinishi lozim. Adabiyotda *zamon va makonni badiiy o'zlashtirishning bunday usulini* M.Baxtin **xronotop** deb tushuntiradi. Olim tomonidan estetika va so'z san'ati nazariyasiga joriy qilingan bu tushuncha (avvallari u matematikada, tabiatshunoslikda, biologiyada qo'llanilgan) obraz tarkibiga zamon va makon xarakteristikallari ajralmas darajada uzviy qorishganligini ifodalaydi (grekcha – *xronos* – **zamon** + *topos* **makon**; so'zma-so'z **zamon-makon**) [Baxtin M.M., 1979; 376].

Badiiy zamon tushunchasi va uning adabiy-estetik kategoriya sifatidagi klassik maqomini belgilagan nazariy-metodologik asoslarning muxtasar ilmiy-tahliliy umumlashmasi muallif ijodiy niyati hamda asarning g'oyaviy-estetik konsepsiyasidan kelib chiquvchi adabiy olamning ijodiy modellashtirilgan zamoni so'z san'atining estetik tabiatini teran tushunish barobarida, uning poetikasi sirlarini ilmiy chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Dunyoning zamon "modeli"ni shartli – ramziy yaxlitlikda badiiy zamon "modeli"ga aylantiruvchi so'z san'atining poetik to'qima hodisasi – badiiy zamon ijodiy-estetik o'zlashtirilgan adabiy olamning ajralmas alomatidir. Badiiy voqelikning sodir bo'lishi va mavjudlik shakli, uning ijodiy kashf qilinishining o'zi, uni estetik tugal butunlikda qabul qilinishini ta'minlovchi, asar kompozitsiyasini tashkil etuvchi, adabiy obrazning muhim xususiyatiga aylanuvchi zamon adabiy-estetik kategoriya sifatida asarda qanday namoyon bo'lishi va tasvirlanishidir. Badiiy zamon tarkiban murakkab, serqatlam, oniy lahzalardan azalu abadgacha, zamondan tashqarigacha ko'lamlar qamrovlarining o'zgaruvchan xilma–

xil tizimlari mushtarakligidan iborat badiiy olam “to‘rtlamchi koordinati” zamonining konseptual yaxlit adabiy–estetik tizimidir.

Ma’lumki, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar makon va zamonda kechadi va shunga ko‘ra adabiyotshunoslikda “badiiy vaqt” tushunchasi keng qo‘llaniladi. Shu o‘rinda adabiyotshunos D.Quronovning quyidagi fikrini keltirish o‘rinli: “Avvalo, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti bilan ularni hikoya qilish vaqtini farqlash kerak. Asardagi voqealarning yuz berish vaqti “syujet vaqti”, ularning hikoya qilinish vaqti esa “kompozitsiya vaqti” deb olinsa, u holda bu ikkisining har vaqt ham bir-biriga mos kelmasligini ko‘rish qiyin emas. Chunki asar ustida ishlayotgan yozuvchi ijodiy niyatini amalga oshirish yo‘lida “badiiy vaqt” imkoniyatlaridan turli yo‘sinlarda foydalanishi mumkin. U zarur o‘rinda asar vaqtdan chekinib, o‘tmishda yuz bergan voqealarni tasvirlashi (“retrospektiv vaqt”) mumkin” [Quronov D., 2018; 13-128]. Syujet vaqtining me’yor va mutanosiblikda uyushtirilishi asar *kompozitsiyasida badiiy zamonning* ruhini aniq belgilaydi. Chunki aynan syujet halqalari badiiy asarning kompozitsion asosini tashkil etishi qonuniyatidan kelib chiqilsa, demak, syujet vaqti asar kompozitsiyasida zamonning tashkil etilishini ta’minlaydi.

Dinamik san’at guruhiga mansub adabiy asarda muallifning ijodiy individualligi namoyishi – badiiy zamon asarning g‘oyaviy–estetik konsepsiyasidan kelib chiquvchi tarkiban murakkab va xilma-xil tizimlarning *o‘zaro yaxlit tizimidan* iborat. Yozuvchining ijodiy niyati asosida zamon tizimining har bir **shakli, tipi, kategoriyasi** va **usullari** alohida holda, ayni paytda, barchasi zamon munosabatlari dialektikasi mushtarakligida **badiiy zamonning tugal sistemasini** tashkil qiladi. Asar badiiy zamonining *yaxlit poetikasi* zamon tizimlarining ana shunday *tugal tizimidan* shakllanadi. Va bu tugal tizim asar g‘oyasida, mavzusida estetik mujassam badiiy zamon konsepsiyasining yaxlitlashgan o‘zidir.

Tizimning falsafiy kategoriya sifatidagi nazariy va metodologik universal maqomidan kelib chiqqan holda, tadqiqot ob’ektini tizimli yondashuv orqali tahlil qilish misolida uning umumlashgan adabiy–estetik yaxlit tizimini “modellashtirish”ga harakat qilamiz. Bunday metodologik yo‘nalish badiiy zamon sistemasining quyidagi ierarxik “modeli”ni aniqlab beradi: **badiiy zamon kategoriyalari, badiiy zamon tiplari, badiiy zamon usullari** va ularning har biri bilan u yoxud bu tarzda bog‘liq badiiy zamonning **shartliligi**. Ular quyidagilar:

1. Badiiy zamon kategoriyalari. Hodisalar va materiya holatining uzluksiz o‘zgarish shakli – **zamonning nisbatini** *fe’lning o‘tgan zamon, hozirgi zamon* hamda *kelasi zamonlardan iborat grammatik kategoriyalari* o‘rnatadi. “O‘zbek tilida vaqtning ifodalovchi leksik, morfologik, sintaktik, fonetik kabi ifoda tizimlariga ega bo‘lgan ko‘p bosqichli temporal maydon mavjud. Umumiy maydonning yadrosini grammatik vaqt [Sultonova Sh., 2015; 8] ma’noli shakllarning yopiq sistemasidan iborat bo‘lgan fe’l zamonlari tashkil etadi. Vaqt ma’nosini ifodalashda ierarx maydonning birliklari o‘zaro hamkorlik qiladi. Fe’lning zamon kategoriyasi vaqt ma’nosini sof ifodalashga ixtisoslashgan, farqlovchi semantik belgilar orqali yuqori darajada (oppozitiv) uyushgan, qo‘llanishi doimiy (majburiy) bo‘lgan yopiq sistemadir” [Hakimov

M., 2004; 18]. Badiiyat olami ana shu badiiy o'tgan zamon, badiiy hozirgi zamon hamda badiiy kelasi zamonlardan iborat uch zamonda mavjud bo'lib, bir zamon qatlamidan ikkinchisiga, undan birinchisi yoki uchinchisiga (va aksincha) bemalol o'taveradi. Zamonlarning o'zaro dialektik almashinuvi badiiy asar poetikasiga xos adabiy-estetik sintez bo'lib, u yozuvchining ijodiy niyati, asarining g'oyaviy-adabiy konsepsiyasidan kelib chiquvchi badiiy zaruratdir. Bunday estetik zarurat, tabiiyki, zamon kategoriyalarining ijodiy faolligini talab qiladi. Aynan amaldagi zamonning ijodiy faolligi asar tarkibining o'ziga xosligini belgilashi barobari, hozir bilan o'tmishni yoki hozir bilan kelajakni bog'laydi, zamon kategoriyalaridan birining ijodiy faolligini namoyish etadi, ayni paytda, xoh o'tmish, xoh kelajak bo'lsin, har ikkisi hozir (hozirgi zamon)ning "bag'rida" bo'ladi. Aynan shu sabab hozirgi zamon tamoyili hukmron prinsip sifatida asar poetikasida (ifodalarning grammatik shakllaridan tortib, badiiy tasvir vositalarigacha) yaqqol namoyon bo'ladi, har bir obraz, ayniqsa, bosh qahramonlar o'zlarini to'liq hozirgi zamonda namoyon etadilar. Shu jihatdan **hozirgi zamon tamoyili yetakchi maqomga ega**: u o'zida badiiy zamonning barcha kategoriya hamda shakllarini qamrab olgan, ya'ni "*hozirgi zamon har bir zamon shakli illyuziyasining tayanch nuqtasidir*" [Gyuyo M., 1970; 120–122]. Har qanday badiiy asarning, qaysi adabiy tur yoxud janrda bo'lmasin, badiiy-poetik to'qimasi badiiy zamon kategoriyalarining u yoxud bu tarzda murakkab qorishmasidan iborat bo'ladi. Oqibatda asar syujetining, badiiy zamonining sabab-oqibat aloqasida rivojlanishiga zid bo'lmagan *hozirgi zamon* tabiiy sezilib turadi. Boshqacha aytganda, badiiy zamon poetikasida hozirgi zamon aksar ko'rinishda o'ziga xos yadro hisoblanadi [Shodiev N., 1986; 136]. Ehtimol, shu bois *hozirgi zamon ham mazmunan, ham mohiyatan, eng asosiysi – tarkiban nihoyatda murakkab hisoblanadi*. "Hozirgi zamonda biz o'tmish izlari va kelasi zamonning ishoralari bilan ro'baro' kalamiz. Biroq xuddi shu hozirgi zamon – haqiqiy reallikdir, chunki u qanday bo'lsa, aynan shundaydir" [Gey N.K., 1967; 243]. Darhaqiqat, zamonaviy romanlarda badiiy hozirgi zamon tasvirlanayotgan voqealar chegarasini kengaytiradi, syujet chiziqlari va voqealarining, kompozitsion uyg'unligini ta'minlaydi, ayni paytda, o'tmish va kelajakning hozir (bugun) bilan aloqasini belgilaydi. Xuddi badiiy o'tgan, hozirgi, kelasi zamonlar kabi fe'lning zamon kategoriyasi integratsiyasi zamonning yaxlitligini, uning murakkab sintetik "manzara"sini yaratadi.

Har bir asar, qaysi adabiy tur va janrga mansub bo'lmasin, o'z badiiy zamon poetikasiga ega bo'ladi. Yirik epik asarlarda badiiy zamonning har *uch shakli* zamon-makon dialektikasida *yaxlit epik zamonni* tashkil etadi. Grammatik zamon shakllarining bunday dialektikasi badiiy zamonning mustaqil, murakkab yaxlit olamini yaratganicha, muallifning ijodiy niyati, asarining konsepsiyasidan kelib chiquvchi sub'yektiv munosabati orqali namoyon bo'ladi. Muallif qanday asar ijod qilmasin, qaysi davr yoki kim haqida yozmasin, barchasiga o'z zamoni nuqtai nazaridan yondashadi. Bunday yondashuv adib ijodida badiiy zamon poetikasini belgilovchi *hozirgi zamon unsurlari hamisha mavjudligi* bilan asoslanadi. Bunday pozitsiya butun asar ruhini "zamonaviylashtiradi", ya'ni o'tmish yoki kelajak materialida muallif hozirgi zamon – hozirgi kunning muhim savollariga adabiy javoblar izlaydi.

Fe'ning uch zamondan iborat grammatik kategoriyalari zamonning universal, mutlaq shakllaridir. Moddiy olamda ular yaxlit halqalashgan, aniq chegaralariga ega zamondir. Badiiyat olamida esa bu chegaralar nisbiy. Shu ma'noda san'at dunyosining o'z zamonlari bor. Faqat ular mutlaq emas, nisbiydir. Muallif ijodiy-estetik niyatidan, asarining janr xususiyatidan va g'oyaviy-badiiy konsepsiyasidan kelib chiqqani holda, o'z badiiy zamon olamini yaratadi.

2. Badiiy zamon turlari so'z san'atining har xil tur va janrlarida zamonning turlicha kechishiga asoslanadi. Zero, ular bevosita adabiy turlar (va adabiy janrlar ham) bilan bog'liq bo'lib, **lirik, dramatik va epik zamondan** iborat.

Lirik zamon lirik va liro-epik janrlar zamon poetikasi asosini tashkil etganicha, shartliligi bilan ajralib turadi. Lirik badiiy zamonga erkin murojaatda bo'lib, oniy lahzalardan cheksizlikkacha, zamondan tashqari bo'lgan abadiyatgacha qamrovga ega. Lirik she'riyatda zamon qatlamlarining o'zaro murakkab integratsiyasi ana shu qamrov tabiati bilan bog'liq. Zamonlarning bunday uzviy chatishmasi o'tmish va kelajak, o'tmish va hozir, hozir – o'tmish –kelajak, hozir va kelajak shaklida poetiklashadi. Biroq lirikada zamonning sezilarli obrazi mutlaqo bo'lmasligi ham mumkin. Lirik zamon – lirik qahramonning his-tuyg'ulari zamoni, izhori dil zamonidir.

Lirikada tasvir o'z fikr-mulohazasini bildirish, lirik zamon – his-hayajonu kechinmalarga to'lib-toshgan oniy lahza hisoblanadi. Zero, shoir zoti hamisha zamonning asiri. Lirikada, odatda, badiiy olamning zamon aspekti nisbatan rivojlangan. Unda muallif bilan qahramon o'rtasidagi masofa juda yaqin, ba'zan shu masofa ham qolmaydi: shoir bilan lirik qahramon "shaxsi" birlashib ketadi (shoir o'z lirik kechinmalarini, dil izhorlarini botinidan zohiriga ko'chiradi). Bu uyg'unlik – shoir lirik zamonining lirik qahramon zamoniga aylangan hayajonli zamoni in'ikosidir. Bu zamon his-tuyg'ular mavji, qalb atalmish makonlar botini uzra kezinish zamoni bo'lib, u o'zida zamonlarning hozirgi, o'tgan va kelasi koordinatalari uyg'unligini, ayni paytda, lirik zamon bilan lirik makonning shartli-ramziy singib ketgan obrazlarini ham poetik yaxlitlashtiradi.

Dramatik zamon ham shartliligi bilan ajralib turadi. Shartlilik, asosan, dramaning teatr sahnasi uchun mo'ljallanganligi, zamon tomoshabin ko'z o'ngida sahna ishtirokchilari – obrazlar o'rtasidagi dialogda "kechuvchi" teatr zamonidan iboratligi bilan bog'liq. "Vaqt kategoriyalarining to'qnashishi, bir tizimdan ikkinchisiga o'tishi dramatik vaqtning tuzilishini tashkil qiladi. Vaqt o'zgaradi, hodisa takrorlanadi, sahnada bir odam har xil yoshda namoyon bo'ladi. Sahnadagi badiiy vaqtning tashkil qilinish usuli turli asarlarda turlicha kechadi. Hozirgi dramatik asarlarda davriy munosabatlar ularning birligi ko'rsatilayotgan harakatdagi voqea bilan hamnafasdir, ya'ni asar voqeasi o'sha zamon munosabatlari timsolida namoyon bo'ladi. Zamon munosabatlari erkin va faol ravishda shakllanadi" [Umarova M., 2011; 27-28]. Albatta, har bir dramaturgning o'z badiiy zamon obrazi bor. Biroq ularning barchasi uchun badiiy zamon shartliligining umumiy xarakteri o'zgarmasdan qolaveradi. Dramatik asar muallifi, bir tomondan, go'yo asar voqealaridan butun ikir-chikirigacha xabardor, shu bois voqea tafsilotlari, uning yuz berish vaqti va joyi haqida oldindan ma'lumot bera oladi. Ayni chog'da, go'yo voqea uning ko'z oldida – hozir sodir bo'layotgandek:

voqeaning kechishini “jonli” tarzda sharhlab boradi [Quronov D., 2018; 35].

Epik zamon. Epik janrga mansub asarlarda badiiy zamon (epik zamon) ko‘p qatlamli, zich-tig‘iz (o‘nlab yillarni real zamonning sanoqli kunlariga sig‘dirish) va murakkab. Zamonaviy romanda yozuvchining ijodiy niyatidan kelib chiquvchi epik zamon asarning umumiy g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasi, murakkab syujet-kompozitsion qurilishi, tasvir shaklining o‘zi bilan bevosita bog‘liq. Shu ma’noda roman zamoni epik syujet va kompozitsiyaning kategoriyasi sifatida namoyon bo‘ladi. *“Badiiy zamon aynan voqealar rivoji kategoriyasi sanaladi va, eng avvalo, romanda voqealarning xarakterli tartibida namoyon bo‘ladi”* [Rjevskaya N.F., 1969; 54].

Yirik epik shakllarning janriy-tematik xususiyatlari, adabiy-estetik mohiyati o‘ziga xos maxsus usullar bilan shakllanuvchi epik zamonni taqozo etadi. Epik zamon aynan ana shu janrda nisbatan yaxlit va to‘liq namoyon bo‘ladi: epik qamrov butun bir davrni, uning harakatini badiiy tadqiq etish imkonini beradi. Zamonaviy romanning janr talabi, zamon va makon chegaralarini kengaytirish vositasi bo‘lgan zamon shakllarining *badiiy montaj tamoyili* ularning murakkab poetik zamon tarkiblarini tashkil etadi [Shodiev N., 1986; 101-108].

Badiiy asar qaysi adabiy tur va janrga mansub bo‘lmasin, o‘z *badiiy zamon turiga* asoslanadi. Lirik zamon epik va dramatik zamon poetikasi tarkibiga uzviy singib ketishi mumkin. Buning ijodiy-estetik amalini zamonaviy romanlar epik zamoni poetikasida yaqqol ko‘rsa bo‘ladi. Badiiy zamon turlari ham bir-birini boyitganicha, muallif ijodiy niyatiga asosan asar poetikasiga o‘zaro singib ketishi umumestetik hodisa ekanligini anglaymiz.

Badiiy zamon usullari. Badiiy zamon kategoriyalarining, eng avvalo, syujet zamoni bilan, undan so‘ng asar kompozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liqligi ularning badiiy zamon yaxlit tizimidagi kompozitsion usullar shaklida namoyon bo‘lishini ta‘minlaydi. *Zamonning ortga qaytishi (retrospeksiya), kelajakka yo‘nalganligi (prospeksiya)* va sekinlashishi (*retardatsiya*) har qanday asar badiiy zamoni xarakterini, mohiyatini anglatadi. Voqealarning xronologik izchilligi muallifning g‘oyaviy-ijodiy niyatiga bo‘ysungan holda o‘zini, nafaqat, tipik, balki zamonning real oqimiga zidligicha muallifning individual badiiy zamonida ham namoyon bo‘ladi. Birinchi holda zamon to‘g‘risidagi tasavvur uning uzluksizligi, qaytarilmasligi (o‘tmishdan hozirga, hozirdan kelajakka) va tekis – bir maromda namoyon bo‘ladi. Ikkinchi holda esa zamon izchilligining jiddiy buzilishi ko‘zga tashlanadi. Bunday buzilish uch ko‘rinishda, ya‘ni *retrospeksiya* [retrospeksiya (lot. *retro* – teskari, orqa + *spectare* – qarash) – o‘tmishga murojaat, o‘tgan voqealar va kechinmalar tahlili, *prospeksiya*] va *retardatsiya* [lot. *retardation* – sekinlashtirish, tutib turish] – syujet voqealarini sekinlashtirish shakllarida namoyon bo‘ladi. Badiiy matn har xil qismlarning tartibsiz to‘plami emas, balki qismlari o‘zaro aloqador bog‘langan tartibli tizimdir. Izchillik va aloqadorlik badiiylikning muhim shartlaridan biridir. Bu esa matn – bo‘linmas birlik degani emas. Matnning sistem-struktural tabiati formal va semantik tomondan qismlarga ajratib tahlil qilish imkoniyatini beradi. Matnning qismlardan tashkil topganligi (bo‘linuvchanligi) va izchilligi uning tabiatiga xos. Retrospeksiya, prospeksiya va retardatsiya badiiy zamonni modellashtirish, ya‘ni voqealar zamonini

rejalashtirishning ajralib turuvchi usullaridir. Retrospeksiya qahramonning tarixini kengaytirish uchun sharoit yaratib, ahvol-ruhiyatini aniqlashtiradi [Rjevskaya N.F., 1969; 43]. Voqealar rivojining retrospeksiya usuli badiiy zamonning ortga qaytishi ifodasi sifatida matnda uning tagosti mazmunini ochish vositasi hisoblanadi. Buning ijodiy namoyishi zamonaviy romanlar epik zamon tizimida xilma-xildir.

Soʻz sanʼatida hozirgi va hatto oʻtgan zamonlar doiralarida kelajakka (kelasi zamonga) murojaat qilishga ijodiy imkon beruvchi, epik zamonning vaqtdan tashqari cheksizlikka singib, abadiyatga aylanib ketishining yagona adabiy-estetik vositalar tizimidan iborat usuli – prospeksiyaning *ikki anʼanaviy shakli* koʻzga tashlanadi. *Biri* – bevosita kelgusida boʻljak voqea–hodisalarning badiiy tadqiqidan iborat fantastik asarlar, ertaklar prospeksiya zamon, *ikkinchisi* – muallifning gʻoyaviy–ijodiy niyatidan kelib chiquvchi, zamonlarning murakkab dialektikasiga asoslangan prospeksiya. Shaklan kitob, qism va boblardan iborat uzluksiz harakatdagi, doimo ilgari lab borajak tinimsiz zamon oqimi – prospeksiyaning shartli badiiyatidir. Obyektimizdagi romanlarning gʻoyaviy konsepsiyalariga xos prospeksiya *shaklan* va *mazmunan* boy, adabiy-estetik murakkab mohiyatga ega. Retrospeksiya bilan prospeksiyaning mushtarak xususiyati shundaki, ularning har ikkisi ham zamonlarning jonli aloqalarini koʻrsatish imkoniyatini beradi: retrospeksiya oʻtgan va hozirgi zamonlar, prospeksiya esa hozirgi va kelasi zamonlar aloqadorligi ifodalari hisoblanadi. Zamon-makonlarning oʻzaro murakkab qorishuvi badiiy syujet qurilishining prinsiplaridan biriga aylanadi.

Retardatsiya – epik asarlarga xos syujet-kompozitsion usul, voqealar haqida hikoya qilish, syujet voqealarini sekinlashtirishdir. Retardatsiya asarga syujetdan tashqari elementlar (lirik chekinishlar, mufassal portret, peyzaj tasviri, personaj xarakteristikasini berish, personajning oʻtmishi haqida hikoya qilish, kiritma voqealar, rivoyat va boshqalar)ni kiritish orqali amalga oshadi [Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva., 2013; 250]. Retardatsiya usulidan muallif zamonini ifodalashda foydalaniladi. Muallif ijodiy niyatiga muvofiq asar zamonini sekinlashtirishi mumkin. Shunday qilib, muallif asarda kechayotgan voqealar bilan birga boʻlishi, voqealar orqasidan izma-iz yurishi, voqealar uni quvib oʻtib ketishi (kundaliklar va xatlarda) mumkin.

XULOSA

Soʻz sanʼatida turli xilda mujassamlashgan, harakatda boʻlgan va ijodiy-estetik oʻzlashtirilgan zamon badiiy zamon tizimi-badiiy modellash tirish vositasi, poetik toʻqima hodisasi, adabiy olamning ajralmas atributi, badiiy voqelikning sodir boʻlish shakli, adabiy obrazning muhim xarakteristikasi maqomlarida yaxlit adabiy-estetik kategoriyadir.

Badiiy zamon adabiy asarning gʻoyaviy-estetik konsepsiyasidan kelib chiquvchi tarkiban murakkab va xilma-xil tizimlarning oʻzaro yaxlit sistemasi boʻlib, badiiy zamon shakllari, tiplari, kategoriyalari hamda usullaridan iborat dialektik birbutun ijodiy-estetik hodisadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, M. (2004). *Falsafa* (qomusiy lugʻat) (344 b.). Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Abutalieva, E.I. (1993). Prostanstvo i vremya v russkoyazichnoy proze Sredney Azii (na materiale tvorchestva Timura Pulatova i Timura Zulfikarova). *Diss. kand. filol. nauk.* (s. 7). Tashkent.
3. Baxtin, M.M. (1967). *Estetika slovesnogo tvorchestva* (ss. 204–205). Moskva: Xudojestvennaya literatura.
4. Baxtin, M.M. (1970). Epos i roman. *Voprosah literaturi*, 1, 120–122. Moskva.
5. Baxtin, M.M. (1975). *Formi vremeni i xronotopa v romane* (ss. 234–407). Moskva: Xudojestvennaya literatura.
6. Baxtin, M.M. (1975). *Voprosi literaturi i estetiki* (ss. 234–235). Moskva: Xudojestvennaya literatura.
7. Baxtin, M.M. (1979). *Problemi poetiki Dostoevskogo* (376 s.). Moskva: Xudojestvennaya literatura.
8. Boboev, T. (2001). *Adabiyotshunoslik asoslari* (135-b.). Toshkent: Oʻzbekiston.
9. Esalnek, A.Ya. (2003). *Xronotop v epicheskoy proizvedenii* (Osnovi literaturovedeniya) (ss. 110–119). Moskva: Flinta.
10. Fyodorov, V.V. (1984). *O prirode poeticheskoy realnosti* (s. 81). Moskva: Nauka.
11. Gegel, G.V. (1938). *Sochineniya* (T. 12) (221 s.). Moskva.
12. Gey, N.K. (1967). *Iskusstvo slovo* (239 s.). Moskva: Nauka.
13. Gey, N.K. (1974). *Vremya i prostranstvo v strukture proizvedeniya* (228 s.). Moskva.
14. Gurevich, A.Ya. (1968). Chto yest vremya?. *Voprosi literaturi*, 11, 152. Moskva.
15. Gurevich, A.Ya. (1972). *Srednevekoviy xronotop* (ss. 5–138). Moskva: Iskusstvo.
16. Gyuyo, M. (1898). *Proisxozhdenie idei vremeni* (T. 11) (s. 33). Sankt-Peterburg.
17. Hakimov, M. (2004). Oʻzbek tilida vaqt maʼnoli lugʻaviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. *Filol. fan. nom. diss.* (18-b.). Fargʻona.
18. Lessing, G.E. (1933). *Laokoon ili o granitsax jivopisi i poezii* (ss. 18–19). Moskva: Xudojestvennaya literatura.
19. Lixachev, D.S. (1971). *Poetika drevnerusskoy literaturi* (416 s.). Leningrad: Xudojestvennaya literatura.
20. Lixachev, D.S. (1994). *Istoriya poetiki russkoy literature* (127 s.). Sankt-Peterburg: Nauka.
21. Lotman, Yu.M. (1970). *Struktura xudojestvennogo teksta* (387 s.). Moskva: Izdatelstvo Iskusstvo.
22. Ozernaya, M. (2017). *Kategoriya xudojestvennogo vremeni v literature*. Moskva.
23. Panasenko, N. (2009). *Interrelations between literary time and space in prosaic texts*. Prešov: University of Prešov.
24. Paveleva, A.K. (2012). Konsepsii, formi i svoystva xudojestvennogo vremeni v literaturnom proizvedenii. *Nauchnye zapiski Har'kovskogo Nacional'nogo Pedagogicheskogo Universiteta im. G.S. Skovorody*, 1, 133–148.
25. Pospelov, G.N., Nikolaev, P.A., Volkov, I.F., Xalizev, V.Ye. (1983). *Vremya i prostranstvo v literature* (327 s.). Moskva: Visshaya Shkola.
26. Quronov, D. (2018). *Nazariy qaydlar* (128 b.). Toshkent: Akademnashr.
27. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliev, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lugʻati* (22–50-b.). Toshkent: Akademnashr.
28. Rjevskaya, N.F. (1969). Izuchenie problemi xudojestvennogo vremeni v zarubejnom literaturovedenii. *Vestnik Moskovskogo universiteta*, 5, 54. Moskva.
29. Shodiev, N. (1986). *Gorizonti eposa* (174 s.). Tashkent: Izdatel'stvo literatura i iskusstva.
30. Shutaya, N.K. (2007). Tipologiya xudojestvennogo vremeni i prostranstva v russkom romane XVIII – XIX vv. *Diss. dok. filol. nauk.* (360 s.). Moskva.
31. Sultonova, Sh. (2015). Badiiy matnda zamon kategoriyasining ifodalanishi. *Oʻzbekistonda xorijiy tillar*, 4 (8). Toshkent.

32. *Teoriya literaturi*. (2004). (521 s.). Moskva: Izdatelskiy sentr "Akademiya".
33. Tulenov, J., G'ofurov, Z. (1997). *Falsafa* (384 b.). Toshkent: O'qituvchi.
34. Umarova, M. (2011). Tarixiy dramada badiiy vaqt konsepsiyasi (Shekspir va Fitrat drama-lari misolida). *Filol. fan. nom. diss.* (27–28-b.). Toshkent.
35. Umurov, H. (2004). *Adabiyotshunoslik nazariyasi* (36 b.). Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
36. *Xudojestvennoe vremya, prostranstvo, sobitie*. (1999). (130-286 s.). Moskva: RGGU.
37. Yesin, A.B. (1999). *Vremya i prostranstvo* (ss. 47-62). Moskva: Visshaya Shkola.
38. Yesin, A.B. (2003). *Xudojestvennoe vremya i xudojestvennoe prostranstvo* (ss. 97-105). Moskva: Flinta.
39. Yo'ldosh, Q., Yo'ldosh, M. (2016). *Badiiy tahlil asoslari* (207 b.). Toshkent: Kamalak.

REFERENCES

1. Abdullaeva, M. (2004). *Philosophy* (encyclopedia dictionary) (344 p.). Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
2. Abutalieva, E.I. (1993). Space and time in the Russian-language prose of Central Asia (Based on the works of Timur Pulatov and Timur Zulfikarov). *Diss. cand. philol. scien.* (pp. 6-7). Tashkent.
3. *Artistic time, space, event*. (1999). (130-286 p.). Moscow: RSHU.
4. Bakhtin, M.M. (1967). *Aesthetics of verbal creativity* (pp. 204-205). Moscow: Fiction.
5. Bakhtin, M.M. (1970). Epic and novel. *Questions of Literature, I*, 120-122. Moscow.
6. Bakhtin, M.M. (1975). *Forms of time and chronotope in the novel* (pp. 234-407). Moscow: Fiction.
7. Bakhtin, M.M. (1975). *Questions of literature and aesthetics* (pp. 234-235). Moscow: Fiction.
8. Bakhtin, M.M. (1979). *Problems of Dostoevsky's poetics* (376 p.). Moscow: Fiction.
9. Boboev, T. (2001). *Fundamentals of literary studies* (p. 135). Tashkent: Uzbekistan.
10. Esalnek, A.Ya. (2003). *Chronotope in an epic work* (Fundamentals of Literary Studies) (pp. 110-119). Moscow: Flint.
11. Esin, A.B. (1999). *Time and space* (pp. 47-62). Moscow: Higher School.
12. Esin, A.B. (2003). *Artistic time and artistic space* (pp. 97-105). Moscow: Flint.
13. Fedorov, V.V. (1984). *On the nature of poetic reality* (p. 81). Moscow: Science.
14. Gay, N.K. (1967). *Art word* (239 p.). Moscow: Science.
15. Gay, N.K. (1975). *Time and space in the structure of the work* (228 p.). Moscow.
16. Gurevich, A.Ya. (1968). What is time?. *Questions of Literature, II*, 52. Moscow.
17. Gurevich, A.Ya. (1972). *Medieval chronotope* (pp. 5-138). Moscow: Art.
18. Guyau, M. (1898). *The origin of the idea of time* (Vol. 11) (p. 33). Saint Petersburg.
19. Hakimov, M. (2004). Uzbek lexical units of time and their possibilities of text formation. *Diss. can. philol. scien.* (p. 18). Fergana.
20. Hegel, G.W. (1938). *Works* (Vol. 12) (221 p.). Moscow.
21. Lessing, G.E. (1033). *Laocoön, or on the borders of painting and poetry* (pp. 18-19). Moscow: Fiction.
22. Likhachev, D.S. (1971). *Poetics of Old Russian literature* (416 p.). Leningrad: Fiction.
23. Likhachev, D.S. (1994). *History of the poetics of Russian literature* (127 p.). Saint Petersburg: Science.
24. Lotman, Yu.M. (1970). *The structure of a literary text* (387 p.). Moscow: Art Publishing House.
25. Ozernaya, M. (2017). *Category of artistic time in literature*. Moscow.
26. Panasenko, N. (2009). *Interrelations between literary time and space in prosaic texts*. Prešov: University of Prešov.
27. Paveleva, A.K. (2012). Concepts, forms and properties of artistic time in a work of art.

- Scientific Notes of Kharkiv National Pedagogical University named after G.S. Skovoroda*, 1, 133–148.
28. Pospelov, G.N., Nikolaev, P.A., Volkov, I.F., Khalizev, V.E. (1983). *Time and space in literature* (327 p.). Moscow: Higher School.
 29. Quronov, D. (2018). *Theoretical notes* (p. 128). Tashkent: Akademnashr.
 30. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva M. (2013). *Dictionary of literary studies* (250 p.). Tashkent: Akademnashr.
 31. Rzhetskaya, N.F. (1969). Studying the problem of artistic time in foreign literary criticism. *Bulletin of the Moscow University*, 5, 54. Moscow.
 32. Shodiev, N. (1986). *Horizons of the epic* (174 p.). Tashkent: Publishing House of Literature and Art.
 33. Shutaya, N.K. (2007). Typology of artistic time and space in the Russian novel of the XVIII-XX centuries. *Diss. doc. philol. scien.* (360 p.). Moscow.
 34. Sultonova, Sh. (2015). Representation of the category of time in the literary text. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 4(8). Tashkent.
 35. *Theory of literature*. (2004). (521 p.). Moscow: Publishing Center “Academy”.
 36. Tulenov, J., Gofurov, Z. (1997). *Philosophy* (p. 384). Tashkent: Teacher.
 37. Umarova, M. (2011). The concept of artistic time in historical drama (on the example of Shakespeare and Fitrat's Dramas). *Cand. diss. phil. scien.* (pp. 27–28). Tashkent.
 38. Umurov, H. (2004). *Literary theory* (p. 36). Tashkent: Abdulla Qodiri National Heritage Publishing House.
 39. Yuldash, Q., Yuldash, M. (2016). *Fundamentals of artistic analysis* (p. 207). Tashkent: Rainbow.